




"Yer vaqti (kuni)" aksiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son qaroriga muvofiq har yili 25-martda "Yer vaqti (kuni)" aksiyasini o'tkazish belgilangan.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Fanlar akademiyasi xodimlari ham aksiyada faol ishtirok etishdi. Binoda bir soatga chiroq, kompyuter va boshqa elektr energiyasi orqali foydalanish vositalarini tarmoqdan uzildi va elektr energiyasi tejaldi.







Aytish mumkinki, ushbu aksiya nafaqat elektr energiyani tejashga yordam beradi, balki tabiiy resuslardan oqilona foydalanish, yashab turgan sayyoramizga g'amxo'rlik qilish lozimligini eslatadi.